

Zuhra Ro'ziyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Kutubxona axborot faoliyati yo'nalishi magistranti
E-mail: zuhraroziyeva263@gmail.com*

KUTUBXONALARDA LOYIHALASH FAOLIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kutubxonalarda texnologiyalardan keng foydalanib, muammolarga yechim topish usuli haqida, xususan, catalog.unicat.uz tizimida resurslarni bibliografik yozuvlarini yaratishda kuzatilayotgan muammolar, ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan. Ajratilgan vaqt mobaynida vaqtdan to'g'ri foydalanish hamda ish samaradorligini oshirish maqsadida xato kamchiliklarsiz bibliografik yozuvlarni yaratish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yig'ma elektron katalog, standartlar, bibliografik yozuv, titul varag'i, antiplagiat, o'lkashunoslik resurslari, ISBN raqami, qayta nashr.

DESIGN ACTIVITIES IN LIBRARIES

Abstract. This article discusses the methods of solving problems using technologies in libraries, in particular, the problems observed in creating bibliographic records of resources in the catalog.unicat.uz system, and their solutions. In order to properly use the time allocated and increase work efficiency, the article discusses the creation of error-free bibliographic records.

Keywords: electronic union catalog, standards, bibliographic record, title page, anti-plagiarism, local history resources, ISBN number, reprint.

Kutubxona-axborot faoliyati, avvalo, kutubxonalarning resurslarini boshqarish, ularni raqamli formatda saqlash va foydalanuvchilarga kerakli axborotlarni tez va samarali taqdim etish imkoniyatini yaratishga qaratilib, kutubxonalarda kitoblarni to'liq raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda sohada kutubxonalarning elektron axborot resurslarini shakllantirish hamda kutubxona tizimini yaratish borasida bir qancha murakkab jarayonlarni, yangidan yangi g'oyalarni, loyihalarni yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada barcha viloyat hamda hududiy axborot-kutubxonalarda Yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida ish olib borilmoqda.

Yig'ma elektron katalog tizimida bibliografik yozuvlarni yaratish, tahrirlash va mavjud bibliografik yozuvlarga nusxa qo'shish axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha qabul qilingan standartlar tizimida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi va bu jarayonda muammoli vaziyatlar yangi g'oyalarning namoyon bo'lishi tabiiy hol.

Standartlar – bu bilimlar majmuasi. Ular innovatsiyalarni rag'batlantiradigan va samaradorlikni oshiradigan kuchli vositalar. Ular tashkilotlarning ish faoliyatini muvaffaqiyatli qilishi, soddalashtirishi, mahsulot yoki xizmatning xavfsizligini ta'minlashi va odamlarning kundalik hayotini yaxshilashi mumkin. Aslida, standart – bu biron bir narsani bajarishning kelishilgan usuli. Bu buyumni ishlab chiqarish, jarayonni boshqarish, xizmat ko'rsatish yoki moddiy ta'minot bo'lishi mumkin. Standartlar korxona bajarishi va ishlab chiqarishi uchun mas'ul bo'lgan va ularning mijozlari foydalanadigan turli xil faoliyat va obyektlarni qamrab olishi mumkin.

Yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida yaratilayotgan resurslarning bibliografik yozuvlari quyidagi standartlar talablariga muvofiq yaratiladi:

- O'z DSt 1215:2009 “Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talablar va tuzish qoidalari” (Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi).
- O'z DSt 2803:2013 “UZMARC mashinada o'qiladigan kommunikativ formati” (Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi).
- O'z DSt 3053:2016 “Axborot-kutubxona resurslari”.
- “Kataloglashtirish qoidalari” (Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi).

Ushbu standartlar adabiyotlarga qo'llanilganda quyidagi amallar bajariladi:

010 Kitobning xalqaro standart raqami (ISBN) (\$a=\$d=\$9)

100 Umumiy ishlov berish ma'lumotlari (\$a)

101 Hujjat tili (\$a=\$b=\$c)



- 102 Nashr qilgan yoki ishlab chiqargan mamlakat (\$a)
- 105 Kodlangan ma'lumotlar maydoni: matnli materiallar, monografik materiallar (\$a)
- 106 Kodlangan ma'lumotlar maydoni: hujjatning shakli (\$a)
- 135 Kodlangan ma'lumotlar maydoni: elektron resurslar (\$a)
- 200 Sarlavha va javobgarlik to'g'risida ma'lumotlar (\$a-\$b-\$c-\$d-\$e-\$f-\$g-\$h -\$i-\$v)
- 205 Nashr to'g'risida ma'lumot (\$a)
- 210 Nashr etish, tarqatish va boshq. (\$a=\$c=\$d=\$e=\$h)
- 215 Fizik tavsif (\$a=\$c=\$d=\$e)
- 225 Seriya (\$a-\$d-\$e-\$f-\$h-\$i-\$v-\$z-\$x)
- 461 To'plash darajasi (\$0-\$a-\$b-\$c-\$d-\$e-\$f-\$g-\$h-\$i-\$l-\$n-\$o-\$p-\$s-\$t-\$v-\$y)
- 500 Bir xillashtirilgan sarlavha (\$a-\$b-\$h-\$i)
- 510 Parallel sarlavha (\$a -\$e-\$h-\$i)
- 675 UO'K (УДК) (\$a)
- 686 Boshqa klassifikatsiyalash indeklari (\$a-\$b)
- 700 Shaxs ismi birlamchi javobgarlik (\$a-\$b-\$c-\$g)
- 701 Shaxs ismi muqobil javobgarlik (\$4-\$a-\$b-\$g)
- 702 Shaxs ismi ikkilamchi javobgarlik (\$4-\$a-\$b-\$g)
- 710 Tashkilot nomi - birlamchi javobgarlik (\$a-\$b-\$d-\$e-\$f)
- 711 Tashkilot nomi - muqobil javobgarlik (\$a-\$b-\$d-\$e-\$f)
- 995 Seriyali yozuvning ko'rsatkichi (\$a-\$b-\$k-\$r-\$v-\$9) [1].

O'z-o'zidan ma'lumki, bu maydon va maydon ostining nomlanishi bo'lib ularni to'ldirishda mutaxassis adabiyotning titul varag'i hamda forsaj qismidan foydalanadi. Dastlabki qadamlarda manbaning qanchalik to'g'ri kiritilishi yoki dasturda yaratilgan yozuvlar ushbu kitobga qanchalik yaqin, yoki aynan shu kitobning o'zimi? Kitobning nomlanishi, muallifi, ISBN raqami, nashr qilingan joyi, nashriyot nomi, nashr yili, adadi, sahifalar soni kabi ma'lumotlar bir birini tasdiqlasagina biz qidirgan kitob dasturda bor yo'qligini aniqlashimiz mumkin. Bu jarayonda tizimda oddiy va batafsil qidiruv jarayoni foydalanuvchilarga kengaytirilgan qidiruvni taqdim etadi.

Bugungi kunda bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da o'z yechimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Aytishimiz mumkinki, kitoblarning titul hamda chiqish haqidagi ma'lumot beruvchi varag'lari bu – kitoblarning “shaxsini tasdiqlovchi hujjatidir”. Muammo shundaki, ko'p hollarda mustaqillik davrigacha bo'lgan XX asrning 50–80- yillarida nashr qilingan kitoblarning ba'zilarida ayrim sabablarga ko'ra titul hamda kitobni chiqish haqidagi ma'lumot varag'lari ataylab yirtib olingan. Bu holat deyarli barcha viloyat va hudud kutubxonalarda kuzatiladi.

Bunday kitoblarning mazmuni eskirmagan, yagona nusxadagi eng sara kitoblardir, afsuski, kerakli ma'lumotlar berilgan sahifalarning yo'qotilganligi evaziga ular haqida yig'ma elektron katalog tizimida bibliografik yozuvlarni to'liq ma'lumotini yaratishning imkoni bo'lmayapti. Mutaxassislar bunday muammoli vaziyatga duch kelgan vaqtlarida qanday yo'l tutishni bilishmay ikkilanishadi. Bunday vaziyatlarda qanday yo'l tutmoq afzal.

Aytaylik, bir muallifning bir nomdagi asari qayta nashr etildi. Yoki to'ldirilgan qayta nashr chiqarilgan. Yuqoridagi holatga ko'ra faqatgina muallif yoki kitob sarlavhasi bilangina biz qidirgan kitobning aynan o'zi ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin. Bu vaziyatda kutubxonalarda yig'ma elektron katalog uncat.natlib.uz tizimida nafaqat asosiy bazadagi yozuvlarga nusxa qo'sholmaymiz, balki vaqtinchalik yozuvlar bazasida ham bu kitobni bibliografik yozuvini yarata

olmaymiz. To'g'ri, bunday vaziyat ko'proq o'lkashunoslikka oid resurslarda ham kuzatilishi mumkin. Agar majburiy nusxa mavjud bo'lsagina muammoga o'rin yo'q.

Deylik, shunday muammoli kitoblarda majburiy nusxa topilmadi. Bu hollarda qanday yo'l tutmoq kerak? Mening aytmoqchi bo'lgan loyiham "Antiplagiat" dasturi orqali bu kabi muammolarga yechim topish mumkin. "Antiplagiat" tizimi sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn bo'laklarini xatosiz aniqlaydi va hisobotda ularni ajratib ko'rsatadi. Tizim boshqa tillardan tarjima qilingan o'g'irlangan matnlarni tan oladi. Antiplagiat kompaniyasi mualliflik huquqi qadriyatlariga amal qilinishi va ularning saqlanishiga ko'maklashgan holda Rossiya va MDH mamlakatlaridagi matnli o'zlashtirib olishlarni qidirish bo'yicha servislarda faol bozor holatini egallaydi [2].

Avvallari istalgan ish matnini qidirish va baholashga mutaxassislarining ko'p vaqti ketardi, o'zlashtirib olishlar manbasini qidirish esa noma'lum muddatgacha cho'zilishi mumkin edi. "Antiplagiat" matnli o'zlashtirishlarni qidirishning innovatsion tizimi bu jarayonni sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu eng ishonchli va samarali usul. U texnikaning rivoji muammolarni oson va tez hal etishda yetakchilik qilmoqda. Bu usul bilan biz ko'chirilgan maqola yoki matnlarni solishtirmaymiz aksincha, kitob matnini solishtirib kitobning aslini topamiz. Bu bizga yuqorida aytib o'tganimizdek, kitobning yo'qolgan ma'lumotlarini solishtirish orqali qanday kitob ekanligi, qachon va qayerda nashr qilingan, nashriyot nomi va hatto sahifalar sonigacha to'liq ma'lumot taqdim eta oladigan yagona yechim manbaidir.

Biz to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun eng avvalo qidirayotgan kitobimizning elektron ko'rinishini topishimiz mumkin bo'lgan tashkilotlarni ham e'tiborga olishimiz kerak. Demakki, o'z-o'zidan kutubxonalararo aloqalar ham muhim ahamiyatga ega. Og'zaki so'rovlar, surishtiruv orqali amalga oshirilgan jarayon yetarlicha o'zini oqlamasligi mumkin. Ammo, sinovdan o'tgan yangicha zamonaviy tizimga ishonch, muvaffaqiyat yuqori bo'lishi o'z isbotini topgan jarayondir. Shu orqali, yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida resurslarning yaratilgan bibliografik yozuvlari kelgusida ularning to'liq matnlari biriktiriladi.

Biriktirilgan to'liq matnli resurslarning yagonaligi bir birini takrorlamasligi muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytganimdek, "Shaxsi tasdiqlanmagan kitoblar" titul varaqlari va kitobni chiqish haqidagi ma'lumotlari bo'lmasa-da matni to'liq mavjud. Kerakli ma'lumotlari yo'qolgan kitoblar PDF yoki WORD formatdagi elektron fayl ko'rinishida "Antiplagiat" dasturiga joylashtiriladi. Agar asar 100 % ni tashkil etsa bu kitob biz qidirgan va asosiy yozuvlar bazasida nusxa qo'shmoqchi bo'lgan kitob ekanligi o'z isbotini topadi. Hatto shu kitobni ilk sahifalaridan so'nggi sahifalarigacha solishtirish imkoniga ega bo'lamiz. Buning uchun "Antiplagiat" dasturi yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida integratsiya qilinishi kerak.

Bunday hollarda dasturda ish olib borayotgan mutaxassis muammoli vaziyatdagi kitoblarni solishtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ma'lumotlarni bir biriga to'g'ri kelishi hamda to'liq ishonch hosil qilgandagina bu kitobni yaratishi va yoki nusxa qo'shishi mumkin bo'ladi. Bu bilan nimani isbotlamoqchimiz? Yoki qanday muammoli vaziyatga oydinlik kiritmoqchimiz?

Eng asosiy maqsadimiz, yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida yagona nusxadagi adabiyotlar bibliografik yozuvini yaratishga erishish, mavjud bibliografik yozuvlarga nusxa qo'shishda xato-kamchiliklarni oldini olish, hamda retro fondagi noyob va yoshi ulug' kitoblarni saqlab qolish, ularni ko'paytirish, kelajak avlodga yetkazish, tarixni avaylab-asrashdir.

Shunday kitoblar bor-ki, qancha asrlar o'tsa ham ularning qadr-qimmatini yo'qolmaydi. Shuning uchun bir paytlar qandaydir sabablarga ko'ra "taqdiri hal qilingan" bunday kitoblarning yo'qolib ketishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Bu yechimni, shunday vaziyatlarga duch kelib imkon topolmayotgan kasbdoshlarimizga tatbiq etmoqchimiz. Ushbu maqola bilan to'g'ri yo'lni topishga yordam bera olgan bo'lsak, yig'ma elektron katalog catalog.unicat.uz tizimida ish olib borayotgan mutaxassislarning ish unumdorligi oshishiga, vaqt yo'qotishini oldi olishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'z DSt 2803:2013 UZMARC mashinada o'qiladigan kommunikativ formati (Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi).*
2. *O'z DSt 2803:2013 UZMARC mashinada o'qiladigan kommunikativ formati (Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi).*

